


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li-
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362980>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, Yoshlar Parlamentining tashkil etilishi, maqsad va vazifalari hamda uning jamiyatdagi o'rni tahlil qilingan. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashda Yoshlar Parlamentining tutgan o'rni va roli asosida tahlil yondashuvi asosida yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar bilan taqqosloviiy tahlil berilib, yoshlar bilan ishlashda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi asoslangan. Tadqiqotda Yoshlar Parlamentining faoliyati, yutuqlari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, Yoshlar Parlamenti, ijtimoiy faollik, davlat boshqaruvi, yoshlar ishtiroki, siyosiy madaniyat, yoshlar tashkilotlari, huquqiy baza, xalqaro tajriba.

Эгамов Юсуфбой Эргашбек угли-

Студент Ургенчского государственного педагогического института

РОЛЬ МОЛОДЕЖНОГО ПАРЛАМЕНТА В УКРЕПЛЕНИИ УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются этапы становления и развития молодежной политики в Узбекистане, организация, цели и задачи Молодежного парламента, его роль в обществе. На основе аналитического подхода освещаются роль и место Молодежного парламента в повышении активности молодежи в общественно-политической жизни и обеспечении ее участия в государственном управлении. Также представлен сравнительный анализ международного опыта, подчеркивающий необходимость разработки эффективных механизмов работы с молодежью. В исследовании представлены деятельность, достижения, текущие проблемы Молодежного парламента и предложения по их устранению.

Ключевые слова: Молодежная политика, Молодежный парламент, общественная активность, государственное управление, молодежное участие, политическая культура, молодежные организации, правовая база, международный опыт.

Egamov Yusufboy Ergashbek ogli-
Student of Urgench State Pedagogical Institute

THE ROLE OF THE YOUTH PARLIAMENT IN STRENGTHENING THE PARTICIPATION OF YOUTH IN GOVERNMENT AND LEGISLATIVE PROCESSES IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

In this article analyzes the stages of formation and development of youth policy in Uzbekistan, the organization, goals and objectives of the Youth Parliament, and its role in society. The role and place of the Youth Parliament in increasing the activity of young people in socio-political life and ensuring their participation in public administration are highlighted based on an analytical approach. A comparative analysis with international experience is also provided, and the need to develop effective mechanisms for working with young people is substantiated. The study presents the activities of the Youth Parliament, its achievements, existing problems, and proposals for their elimination.

Keywords: Youth policy, Youth Parliament, social activism, public administration, youth participation, political culture, youth organizations, legal framework, international experience.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy barqarorligi va madaniy rivojlanishi, avvalo, uning yosh avlodiga bog'liq. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va tezkor axborot oqimi sharoitida yoshlarning faolligi, bilim va salohiyati, tashabbuskorligi milliy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish har bir zamonaviy davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati mustaqillik yillaridan boshlab muhim davlat yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bordi. So'nggi yillarda mazkur soha bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari, davlat dasturlari, institutsional islohotlar orqali yoshlarning faolligini oshirishga, ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yoshlar Parlamentining tashkil etilishi[1] ushbu yo'nalishdagi muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar siyosatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, hozirgi kundagi islohotlar, Yoshlar Parlamentining tashkil topishi, maqsad va vazifalari, faoliyat yo'nalishlari hamda xalqaro tajribalar bilan o'zaro taqqoslanadi. Shuningdek, yoshlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy faolligi va muvaffaqiyatli loyihalar asosida ularning ta'sirchanligi tahlil qilinadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Yoshlar siyosati, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki va ular uchun yaratilgan institutsional platformalar haqida so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategiyalar va dasturlar — bu boradagi tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosati masalasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarorlari orqali keng yoritilgan. Shu bilan birga, "Yoshlar — kelajagimiz", "Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini rivojlantirish strategiyasi", O'zbekiston Yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlarning hisobotlari va faoliyati tahliliy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda esa, yoshlar parlamentlari institutining demokratik jamiyatlardagi o'rni haqida bir qator tadqiqotlar mavjud. Masalan, Britaniya Yoshlar Parlamenti tajribasi [2], Germaniyaning "Jugendparlament" tizimi[3], Hindiston va Qozog'istondagi yoshlar siyosatining modeli[4] O'zbekistondagi tajribani tahlil qilishda muhim qiyosiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy maqolalar, sohaviy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, Yoshlar Parlamenti institutining joriy etilishi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Ushbu maqolada mavjud adabiyotlar asosida mavzuga tizimli yondashuv qo'llaniladi va mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga harakat qilinadi.

Ushbu ilmiy maqola sifatida ishlab chiqilgan ishda kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod - O'zbekistonda yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda ushbu metod qo'llanilib, mustaqillikdan hozirgi kungacha bo'lgan asosiy davrlar xronologik asosda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil (komparativ) - Yoshlar parlamentlari faoliyatining xalqaro tajribasi (Buyuk Britaniya, Germaniya, Qozog'iston, Hindiston) bilan O'zbekiston tajribasi o'zaro taqqoslandi. Bu orqali o'zbek modeli ustun va zaif jihatlari aniqlanib, takliflar ilgari surildi.

- Sotsiologik yondashuv - Maqolada Yoshlar ishlari agentligi tomonidan olib borilgan so'rovnoma natijalari tahlil qilinib, yoshlarning parlamentga bo'lgan munosabati, xabardorligi va ishtiroki raqamli dalillar asosida yoritildi.
- Empirik tahlil - Yoshlar Parlamenti doirasida amalga oshirilgan ijtimoiy loyihalar — "Yoshlar va qonun", "Yashil kelajak", "Yoshlar innovatsiyasi" singari tashabbuslar amaliy misol sifatida ko'rib chiqildi.
- Normativ-huquqiy tahlil - Yoshlar Parlamenti faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar — Konstitutsiya, Qonunlar, Farmon va qarorlar, reglamentsiyalar asosida huquqiy baza o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yoshlar siyosati har bir mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi hisoblanadi. Bu siyosat orqali davlat o'zining kelajakdagi yetakchilarini shakllantiradi, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini rag'batlantiradi. O'zbekistonda ushbu yo'nalish mustaqillik yillaridan buyon izchil rivojlanib kelmoqda. So'nggi yillarda yoshlar bilan ishlash sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, ularning real hayotdagi ishtiroki yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Yoshlar Parlamenti kabi yangi institutlarning joriy etilishi yoshlarga davlat boshqaruvi va qonunchilik jarayonlarida bevosita qatnashish imkonini yaratmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Yoshlar Parlamenti nafaqat siyosiy irodaning ifodasi, balki yoshlar va davlat o'rtasidagi samarali muloqot platformasiga aylangan. Bu parlament orqali yoshlar o'z fikrini ochiq bildirishi, muammolarni ko'tarib chiqishi, qonunchilik tashabbuslarida ishtirok etishi mumkin. Bunday tajriba demokratik jarayonlar rivojida ijobiy rol o'ynaydi.

Shuningdek, yoshlarning bu platformaga bo'lgan munosabati, ishtiroki va faolligi haqida olib borilgan sotsiologik so'rovlar ham ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. 2024-yilgi so'rov natijalariga ko'ra, yoshlarning 72 foizi Yoshlar Parlamenti haqida xabardor bo'lsa, 46 foizi parlament a'zosi orqali o'z muammosi bo'yicha murojaat qilgan[5]. Bu esa mazkur institutning real hayotda qanday ishlayotganini va yoshlar uchun ahamiyatli ekanini isbotlaydi.

Biroq, mavjud holat bilan bir qatorda ayrim muammoli jihatlar ham aniqlanmoqda. Jumladan:

- Parlament a'zolarining barchasi doimiy ravishda faol bo'lavermaydi;
- Qonunchilik tashabbuslari ba'zida amaliy yechimga olib bormaydi;
- Hududiy tenglik prinsipi hali to'liq ta'minlanmagan (ayrim viloyatlardagi yoshlar vakilligi sust);
- Yoshlar Parlamentining takliflari yuqori darajadagi qaror qabul qilishda ko'proq tavsiya xususiyatiga ega bo'lib qolmoqda.

Bu muammolar mavjud bo'lsa-da, tizim hali ham shakllanish bosqichida ekani, ijtimoiy institut sifatida o'z rolini kuchaytirib borayotgani e'tiborga molik. Muhimi, yoshlar orasida siyosiy madaniyat, fuqarolik pozitsiyasi va liderlik salohiyati shakllanmoqda. Yoshlar Parlamenti bu jarayonda muhim o'rin tutmoqda.

Xalqaro tajribalar bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning yondashuvi innovatsion va milliy qadriyatlarga mos holda yo'lga qo'yilganini ko'rish mumkin. Misol uchun, Buyuk Britaniyada yoshlar parlamenti maktab yoshidagi bolalardan iborat bo'lsa[6], O'zbekistonda bu institut 18–30 yosh orasidagi, siyosiy va ijtimoiy tajribaga ega yoshlardan shakllantiriladi[7]. Bu esa ishtirokchilarning saviyasi va takliflar sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, Yoshlar Parlamenti — yoshlarning faolligini kuchaytirish, ularning fikrini eshitish va davlat siyosatida inobatga olishga xizmat qiluvchi dolzarb mexanizmdir. Mazkur institutni kuchaytirish, uning vakolatlarini kengaytirish, islohotlarning davomiyligini ta'minlash orqali O'zbekistonda yanada kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish mumkin.

Ushbu tadqiqot davomida O'zbekistonda yoshlar siyosatining rivojlanishi, Yoshlar Parlamentining tashkil etilishi va uning jamiyatdagi o'zni atroflicha o'rganildi. Tahlil va muhokama natijalariga ko'ra quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- Yoshlar siyosati O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biridir, va u mustaqillikdan buyon izchil rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan.
- Yoshlar Parlamenti instituti yoshlarning siyosiy faolligini oshirishda muhim omilga aylandi. Ushbu platforma orqali yoshlar o'z fikrlarini bildirish, muammolarni ko'tarish, qonunchilik tashabbuslarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.
- Amaliy faoliyat doirasida parlament bir qator muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirdi, jumladan, “Yoshlar va qonun”, “Yashil makon”, “Yoshlar innovatsiyasi” kabi ijtimoiy, huquqiy, ekologik va texnologik tashabbuslar yoshlarda liderlik va fuqarolik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.
- Sotsiologik so'rovlar shuni ko'rsatmoqdaki, Yoshlar Parlamenti aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar orasida tanilgan va ishonchli institutga aylangan. Respondentlarning katta qismi parlament faoliyatini ijobiy baholagan va bevosita ishtirok etgan.
- Yoshlar Parlamentining huquqiy va tashkiliy asoslari shakllantirilgan bo'lsa-da, uning faoliyatini yanada kuchaytirishga ehtiyoj mavjud. Jumladan, vakolatlar doirasini kengaytirish, mintaqaviy tenglikni ta'minlash va takliflarning amaliy natijalarga aylanish mexanizmini kuchaytirish zarur.
- Xalqaro tajribalar bilan qiyoslaganda, O'zbekiston modeli o'ziga xos yondashuvga ega bo'lib, yoshlarning siyosiy ishtirokini yanada chuqurlashtirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan yondashuv ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Yoshlar Parlamenti O'zbekistonda yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytiruvchi va ularning ovozini eshitishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida shakllanmoqda.

XULOSA

Yoshlar har qanday jamiyatning strategik resursi bo'lib, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining izchil amalga oshirilayotgani, ayniqsa, Yoshlar Parlamenti kabi yangi institutsional mexanizmlarning joriy qilinishi, yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Tadqiqot davomida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. Yoshlar Parlamenti yoshlar siyosatining amaliy ifodasi sifatida ularning davlat boshqaruvi, qonunchilik va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda.
2. Mazkur parlament orqali yoshlar jamiyatdagi dolzarb muammolarni ko'tarish, ularni hal qilish bo'yicha takliflar berish va qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ldi.
3. Yoshlar Parlamentining faoliyati nafaqat ichki siyosiy tizim doirasida, balki xalqaro maydonda ham e'tirof etilmoqda, bu esa O'zbekistonning yoshlar siyosatidagi ochiqqligi va hamkorlikka tayyorligini ko'rsatadi.

4. Amaliy faoliyatda bir qator ijobiy natijalar kuzatilayotgan bo'lsa-da, hali to'liq hal etilmagan masalalar ham mavjud, xususan: vakolatlar doirasi, hududlararo tenglik, yoshlar takliflarining yuqori darajadagi qarorlarda inobatga olinishi.
5. Yoshlar Parlamentini takomillashtirish orqali siyosiy ishtirok, liderlik va fuqarolik ongini yanada kuchaytirish, jamiyatda mas'uliyatli va yetuk avlodni shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar Parlamenti O'zbekistonda yoshlar uchun ochiq muloqot va tashabbus maydonini yaratish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, siyosiy madaniyatni rivojlantirish yo'lida muhim institut sifatida shakllanmoqda. Uning faoliyatini davom ettirish va takomillashtirish orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni yanada samarali yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. <https://lex.uz/en/docs/-6358558>
2. <https://www.facebook.com/yoshlarparlamentiofficial/posts/298433921604975/>
3. <https://youthrussia.ru/news/xii-rossijsko-germanskij-molodyozhnyj-parlament>
4. <https://pedagoglar.org/01>
5. <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/31498>
6. <https://www.facebook.com/yoshlarparlamentiofficial/posts/298433921604975/>
7. <https://lex.uz/en/docs/-6358558>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000